

TARKIBIDA SO'ROQ OLMOSHI ISHTIROK ETMAGAN TUZILMALARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Xolmatova Vazira Narzullaevna

Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti

“Xorijiy tillar” kafedrasida dosenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: vazira8707@gmail.com

ANNOTATSIYA

Savol gaplari savol qo'yish maqsadiga ega nutqiy harakatining lisoniy voqelanishidir. Boshqacha aytganda, savol gapi ma'lum turdagi nutqiy harakatga mos keladigan sintaktik qurilma. Shu bois, savol gapini ma'lum ko'rinishdagi sintaktik belgilarga ega sirtqi struktura sifatida tavsiflash bilan bir paytda, uning semantik xususiyatlari sohibi ekanligini ham e'tiborga olish lozim bo'ladi. Bundan tashqari, savol tuzilmasi nutqiy faoliyatni aks ettiruvchi nutqiy tafakkur mahsulidir. Qayd etilgan xususiyatlar so'roq tuzilmasi tarkibida o'zaro munosabatga kirishib, yagona bir ajralmas yaxlitlikni hosil qiladi.

***Kalit so'zlar:** Nutkiy tuzilma, savol gapi, semantika, pragmalingvistika, nutkiy akt, intonasiya, intensiya, konnotativ ma'no, tub ma'no.*

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ КОНСТРУКЦИЙ БЕЗ ВОПРОСИТЕЛЬНЫХ МЕСТОИМЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

Вопросительные предложения являются языковым проявлением речевого акта с целью задать вопрос. Другими словами, вопросительное предложение – это синтаксический прием, соответствующий определенному типу речевого акта. Поэтому, описывая вопросительное предложение как поверхностную структуру, имеющую определенные синтаксические особенности, следует также отметить, что оно обладает семантическими свойствами. Кроме того, структура вопроса является продуктом речевого мышления, отражающим речевую деятельность. Указанные особенности взаимодействуют в структуре запроса и образуют единое неразрывное целое.

***Ключевые слова:** Структура речи, вопросительное предложение, семантика, прагмалингвистика, речевой акт, интонация, интенция, коннотативное значение, корневое значение.*

FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF STRUCTURES WITHOUT INTERROGATIVE PRONOUNS

ABSTRACT

Interrogative sentences are the linguistic manifestation of a speech act with the purpose of asking a question. In other words, a question sentence is a syntactic device that corresponds to a certain type of speech act. Therefore, while describing the question sentence as a surface structure with certain syntactic features, it should also be noted that it has semantic properties. In addition, the question structure is a product of speech thinking that reflects speech activity. The mentioned features interact in the structure of the query and form a single inseparable whole.

Keywords: *Speech structure, question sentence, semantics, pragmalinguistics, speech act, intonation, intention, connotative meaning, root meaning.*

KIRISH

Turli tillarda bitilgan grammatikaga oid darsliklarda til tizimida savol olmoshi ishtirok etmaydigan va to‘g‘ri so‘z tartibiga ega so‘roq tuzilmalar uchrashi haqida qisqacha ma'lumotlar berilsa-da, lekin ushbu turdagi tuzilmalar tizimli ravishda o‘rganilmagan. Bunday tuzilmalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- That’s better?
- Much better (G.Green. The Quiet American).
- You wrote both the letter and the headman’s answer?
- Yes sir (B. Shaw. Too true to be good);
- You are glad of that?
- Glad indeed (Osborne. J. Look back in anger).

Ushbu turdagi tuzilmalarning savol intensiyasiga egaligini formal jihatdan ifodalovchi yagona vosita yozuvda savol belgisining qo‘yilishi bo‘lsa, ogzaki nutqda esa intonasiya va javob talab qilinishidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tili grammatikasiga oid asarlarda ushbu ko‘rinishdagi tuzilmalar an'anaga binoan umumiy savollar (general questions), “ha” yoki “yo‘q” javoblarini talab qiluvchi savollar (“yes-no” questions), fe'l savollar (verbal questions), olmoshsiz savollar deb atalib kelinadi (Jacobs 1993:255; Palmer 1989:263; Curme 1972: 352).

Tadqiqotchilar o‘zbek tili tizimida ham umumiy savollarni alohida guruhga ajratadilar va ularning shakllanishida intonasiyaning roli alohida ekanligini ta'kidlaydi. Masalan:

- Gapur, —dedi Sharof —Mirzo Anvar, osiy Anvar deyapti chog‘i?

Qobil yana javob bermadi.

—Zaboning bor, axi, burodaringni tutganlarchi?

—Yo‘q (Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon):

Sultonalining ko‘zi olalatib, peshonasida qator ajinlar zohir bo‘ldi.

—Adashib kirdi?

—Ha (Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon).

Ammo o‘zbek tilida umumiy so‘roqlar yana bir formal ko‘rsatkichga, ya‘ni –mi so‘roq alomatiga ega bo‘lishi mumkin. Jumladan, U.Yusupov “U ishlayaptimi?”, “Yordam beraymi?”, “U talabami?” kabi tuzilmalarni umumiy so‘roq gaplar guruhiga qo‘shish tarafdori (Yusupov 2013: 163; Yusupov 2015: 187).

Xullas, ko‘pchilik tilshunoslar ingliz va o‘zbek tillarida so‘roq olmoshisiz shakllangan va to‘g‘ri so‘z tartibiga ega bo‘lgan so‘roq tuzilmalari mavjudligiga e‘tibor qaratishib, bunday tuzilmalarning ayrim jihatlarini tavsiflashga harakat qilib kelishmoqda. Biroq ularning lisoniy maqomi va til tizimida tutgan o‘rni va kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari hozirgacha to‘liq aniqlangani yo‘q.

Ingliz tilidagi turli ko‘rinishli savol gaplarining intonasion strukturasi maxsus o‘rgangan E.V.Shevyakova umumiy savollar intonasiyasi haqida ham birmuncha qiziqarli fikrlarni bayon qilgan edi. Olima ushbu turdagi savol tuzilmalari vositasida fikr o‘ziga xos ravishda bayon qilinishini uqtiradi. Kommunikativ jihatdan javob talab qiladigan mazmunan taxmin qiluvchi va tasdiqlovchi guruhlarga taqsimlanadi. Taxmin mazmuniga ega gaplar ko‘tariluvchi ohangda talaffuz qilinsa, tasdiqlovchilari esa pasayuvchi ohangni oladi (Shevyakova 1974). Ammo E.V. Shevyakova muhokama qilinaotgan turdagi savol gaplarining boshqa xususiyatlariga to‘xtalishni lozim topmaydi.

Xuddi shuningdek, R.L.Reyngard, so‘roq gaplarining ingliz tili tarixida rivojlanish bosqichlari tadqiqiga bag‘ishlangan ishida savol gapi strukturasi taraqqiyotini inversiya hodisasi, yoki so‘z tartibi buzilishi bilan bog‘laydi. Bizningcha, olimaning ushbu xulosasi isbotlanmasdan qolgan farazdir. Lekin olmosh ishtirokisiz tuzilgan savol gaplarining tarixi uzoqqa borib taqalishi haqiqat (Reyngard 1961).

MUHOKAMA

D.Bolinjning *Interrogative Sentences of American English* nomli kitobida bildirilgan fikrlar diqqatga sazovor (Bolinger 1987). Kitob muallifi so‘roq gaplari tasnifi uchun asos bo‘ladigan xususiyatlar ustida to‘xtalib, eng ishonarli mezonlar sifatida distribusiya (javob), va sintaksis, ya‘ni gapning tuzilishini tanlashni ma‘qul ko‘radi. Savol gaplarini ularga berilayotgan javoblarga nisbatan tasniflash tarafdori bo‘lgan olim umumiy so‘roq tuzilmalarini “yes/no” questions (“xa yoki yo‘q”

savollari), deb ataydi. Bunda “Do you like it?” va “You like it?” gaplari qiyosida ularning birinchisida do unsuri savol ko‘rsatkichi vazifasini bajarishi, ikkinchisida esa, hech qandey sintaktik yoki morfologik ko‘rsatkich ishtirok etmayotganligi qayd etiladi. Biroq, D.Bolinjer yuqorida keltirilgan tuzilmalar o‘rtasida sinonimlik munosabat mavjudligi yoki ularning muloqot jarayonida bir xil vazifa bajarishi mumkinligi haqida hech qandey fikr bildirmaydi.

Boshqa bir qator sintaksisga doir ishlarda, so‘roq gaplari alohida tadqiq qilinmagan bo‘lsa-da, lekin savol shaklan darak gapga mos keladigan tuzilmalar orqali ifodalanishi mumkinligi e’tirof etilgan (Masalan, qarang: Sweet 1953: 125; Fries 1959: 158).

Fikrimizcha, so‘roq olmoshi ishtirokisiz tuzilgan to‘g‘ri so‘z tartibiga ega so‘roq gaplarining funksional-semantik xususiyatlarini to‘liq yoritish uchun ularni teskari so‘z tartibidagi gaplar bilan chog‘ishtirib tahlil qilish lozim bo‘ladi. Bunday qiyosdan ko‘zlanayotgan maqsad ushbu turdagi savol tuzilmalar bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farq qilishini ko‘rsatish va ularning sintaktik variantlar sifatida talqin qilish imkoniyati chegaralanganligini isbotlashdir.

Tahlil uchun tanlangan material badiiy asarlarda uchraydigan dialoglardan iborat bo‘lib ular tarkibidagi to‘g‘ri so‘z tartibiga ega va so‘z tartibi buzilgan olmoshsiz so‘roq gaplarining soni qariyb bir xil. Bunday miqdoriy ko‘rsatkich ushbu turdagi so‘roq gaplarining ingliz va o‘zbek tillari tizimida bir xil ahamiyatga molikligidan xabar beradi.

Qiyoslanayotgan so‘roq tuzilmalarining tarkibida umuman so‘roq gaplari uchun xos bo‘lgan xususiyatlarning aks topishi quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

1. Barcha ko‘rinishdagi so‘roq gaplarini umumiy funksional tur doirasida birlashishi va boshqa funksional turdagi gaplardan farqlovchi belgi ularning barchasi yagona bir kommunikativ vazifa, ya’ni so‘roq intensiyasini ifodalashida ko‘rinadi.

Biroq, tahlil natijalari guvohlik berishicha, ushbu umumiy mo‘ljall so‘roq ifodalanishi darajasiga nisbatan turlicha bo‘lishi mumkin.

So‘roq darajasini aniqlash uchun to‘plangan misollarni mazmun va shakl ko‘rsatkichlariga hamda mo‘ljaldagi kommunikativ vazifaga nisbatan qiyosiy tahlilga tortish lozim bo‘ladi. Bunda, shuningdek, distributiv xususiyatlarni ham (oldingi kontekst va javob replikasi) inobatga olish muhimdir.

Oldingi kontekstning inobatga olinishi, birinchidan, savolning ma’lum mavzudagi suhbatning boshlanishi yoki uning davomi ekanligini aniqlashga imkon bersa, ikkinchidan, so‘ralayotgan axborotning yangiligi yoki oldindan ma’lumligiga ishora qiladi.

Javob replikasi tahlilida esa, birinchidan, uning so‘roq tuzilmasida rejalashtirilgan vazifaga mos kelishi aniqlansa, ikkinchidan, savolning strukturasi va mazmuni javobdan qanday aks topayotganini bilishga imkon beradi.

Rus tilshunosi A.M.Peshkovskiy o‘z paytida olmoshsiz so‘roq gaplarining javob replikasiga munosabati bir xil emasligini qayd etib o‘tgan edi (Peshkovskiy 1958: 358). Olmoshsiz so‘roq gapi so‘z tartibi teskari tartibga ega bo‘lganida yangi axborot so‘rovini ifodalaydi va javob to‘g‘risida hech qanday ishora yo‘q. Bunda javob tasdiq yoki inkor ma‘nosida bo‘lishi mumkin. Ushbu turdagi savol mavzuga oid suhbatni boshlab beradi. Masalan, quyidagi dialog ishtirokchisi bo‘lgan Jeyn nomli qiz o‘zining vafot etgan otasi to‘g‘risida hech qanday ma‘lumotga ega emas va u otasini yaxshi bilgan kishilardan otasi qanday odam bo‘lganligini bilmoqchi. Jeyn otasi haqida yangi ma‘lumot olish maqsadidagi savolni so‘raydi.

1) Jane: Did you look forward to seeing him, to dining with him? Was he gay and attractive and good company?

Jacob: He could be all those things when he chose.

2) Jane: Will you answer one question abstractly honestly ?

Sebastian: That depends what the question is.

Jane: Were you genuinely fond of my father?

Sebastian: Yes, Miss Jane, I was, You may believe that (Noel Coward. *Nude with Violin*).

Ko‘rinadiki, olingan ma‘lumotlar so‘zlovchi uchun yangidir. Demak, tahlil qilinayotgan turdagi savolda odatda javob haqida ishora yo‘q va ushbu turdagi savolning asosiy vazifasi yangi axborot so‘rovidan iborat.

Olmoshsiz savol to‘g‘ri so‘z tartibiga ega bo‘lganida esa aksincha oldingi kontekst bilan mustahkam alohida va u yoki suhbatdoshning oldingi nutqiy akti yoki oldindan ma‘lum bo‘lgan faktlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Bunda yangi axborot so‘ralmasdan, balki savolda ifodalanayotgan fikrning to‘g‘riligini aniqlash maqsadi ko‘zlanadi.

Jumladan, quyidagi dialog ishtirokchisi Xey suhbatdoshi Paylning amerikalik ekanligidan xabardor va shu sababli uning Nyu-York shahridan deb o‘ylaydi. Paylning javobidan uning Boston shahrida yashashini bilgandan so‘ng qiz ushbu shahar AQShda joylashgani haqidagi ehtimolini aniqlashtirishga harakat qiladi:

—You come from New-York?

—No, from Boston.

—That’s in the United States too?

—Oh, yes, yes. (Green G. *The Quiet American*).

Xuddi shunday holatni o‘zbek tilidagi dialogda ham kuzatamiz:

— Ochilip deganni taniysanmi?—dedi anchadan keyin.

— Nima edi?—dedim sergaklanib.

— Hurini gazetaga urib chiqmoqchi emish. Qo‘y bolam, shuni yozmay qo‘ya qolsin (O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari).

Ushbu dialogda ona “Ochilip deganni taniysanmi?” deb so‘rash bilan o‘g‘lining Ochilov degan muxbirni yaxshi tanishini taxmin qilmoqda va shu taxminini tasdiqlanishini kutmoqda.

Myers: Granted that the scar was made by this particular knife, there was nothing to show whether it was an accident or done deliberately?

So‘zlovchining taxmini to‘g‘ri so‘z tartibiga ega savol tuzilmasi vositasida ifodalanishi quyidagi holatda ham ko‘rish mumkin:

Wilfred: Really, my Lord, if my learned friend is going to answer him own questions, the presence of the witness to be superfluous (Christie A. The Witness for the Prosecution).

XULOSA

Bu dialog parchasidan ma'lum bo‘lishicha himoyachi Uilfred sudya Mayersning savoliga qarshilik ko‘rsatmoqda, chunki sudya faqat o‘z taxminini tasdiqlashga yo‘naltirilgan savolni qo‘ymoqda.

Ammo ushbu tarzda savollarga beriladigan javob har doim ham tasdiq mazmuniga ega bo‘lavermaydi. Masalan:

- Mabodo avlodidan o‘g‘rimi, nashvandmi chiqmaganmi? Beixtiyor og‘zimdan opamning savoli chiqib ketdi.

Guli birdan jiddiy tortdi. Qoshini chimirdi.

- Nima deganingiz bu? (O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari).

Tinglovchi Guli savolga savol bilan javob berish orqali akasining taxminini inkor etmoqda. Umuman so‘zlovchi shaxs ko‘pincha o‘z fikrini savol shaklida bayon etayotib, mazkur fikrning haqiqat yoki noto‘g‘ri ekanligini bilishni istaydi. Albatta bildirilayotgan fikr noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin, biroq kuzatuvlar olmoshsiz so‘roq gaplari asosan tasdiq javobni olishidan xabar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Green G. The Quiet American. –New-York, 1983.
2. Shaw B. Too True To be Good. Four Plays. –M.: , 1992.
3. Osborne J. Look back to in Anger: Modern English Plays. –M.: , 1996.
4. Jacobs R. English Syntax. A Grammar for English Language Professionals. – Oxford: Oxford University Press, 1993.– 378 p.

5. Palmer H., Stanford F. A Grammar of Spoken English. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 579 p.
6. Curme J. A Grammar of the English Language Syntax. Vol.3. –Boston, 1972.
7. Абдулла Қодирий. Мехробдан чаён. –Т.: Илм-зиё-заковат, 2019.– 320 б.
8. Юсупов У. Инглиз ва ўзбек тилларининг чоғиштирма лингвистикаси. – Т.:Akadem nashr, 2013.– 288б.
9. Юсупов У. Инглизча –ўзбекча грамматик диаформалар. –Т.: Akadem nashr, 2015.– 256 б.
10. Шевякова Е. В. Интонация вопросительных предложений в современном английском языке. Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – М., 1974.–22 с.
11. Рейнгард Р.Л. Вопросительные предложения в английском языке. Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – М., 1961.–25 с.
12. Bolinger D. Interrogative structures of American English. –Alabama,1987.
13. Sweet H. A New English Grammar Logical and historical. Part II. Syntax. – London, 1953.
14. Fries Ch. The structure of English. –London, 1959.
15. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Учпедгиз, 1958.–358 с.
16. Coward Noel. Nude with Violin.
17. Ўткир Ҳошимов. Дунёнинг ишлари.(қиссалар). –Т.: “Илм-зиё-заковат”,2019.
18. Kholmatova V.N. Communicative means of expressing constative and confirming speech acts // Journal of Critical Reviews (Scopus). ISSN- 2394-5125. Vol 7, Issue 5, 2020. – P. 469-471.
19. Kholmatova V.N. Different Shades Of Pragmatic Meaning Of Agreement Formed By Modal Words European Journal of Molecular & Clinical Medicine, (Scopus). 2020, Volume 7, Issue 6, ISSN: 2515-8260. Pages 2184-2188.